# O‘ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O‘RGANISH TAJRIBASIDAN

**Tilyabayev Kamil Zaitjonovich,** Toshkentda Xalqaro Vestminster Universiteti katta o‘qituvchisi, PhD
**e-mail:** k.tilyabaev@wiut.uz

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘zbek millatiga mansub, ammo rus tilida ta’lim olgan 20-40 yoshli O‘zbekiston fuqarolarining o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishning hissiy tajribalari tahlil qilinadi. Ular o‘zbek bo‘la turib, o‘zbek tilini muvaffaqiyatli o‘zlashtira olmaganligi uchun uyaltirilib, tegishli fikr-mulohazalar va takliflar berishdi.

**Kalit so‘zlar:** o‘zbek tili, uyat, millat, o‘rganish tajribasi.

# ИЗ ОПЫТА ИЗУЧЕНИЯ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА КАК ВТОРОГО

**Аннотация.** В данной статье анализируется эмоциональный опыт изучения узбекского языка как второго гражданами Узбекистана узбекской национальности 20-40 лет, получившими образование на русском языке. Будучи узбеками по национальности, они часто подвергались прилюдному порицанию за то, что они не смогли успешно овладеть языком, в связи с чем они выразили свои мысли и предложения.

**Ключевые слова:** узбекский язык, стыд, национальность, опыт изучения.

# FROM THE EXPERIENCES OF LEARNING UZBEK AS A SECOND LANGUAGE

**Abstract.** This paper analyses the emotional experiences of Uzbek citizens of Uzbek ethnicity aged 20-40 who learnt Uzbek as a second language through Russian. As ethnic Uzbeks they were often ashamed for failing to acquire Uzbek and, and hence, shared some feedback and recommendations.

**Keywords:** Uzbek language, shame, ethnicity, learning experience.

**Kirish.** Tilshunoslarning his-tuyg‘ularga bo‘lgan qiziqishi 1980-yillarda boshlangan. Hozirda his-tuyg‘ular til o‘rganishning markaziy tarkibiy qismi sifatida ko‘rilmoqda [1]. Ikkinchi til o‘rganishda ijobiy psixologiya va his-tuyg‘ular modeli Shao va boshq. [2] tomonidan taklif qilingan. Mazkur model quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi: 1) o‘quv muhiti/tizimi; 2) talabalarning shaxsiy sifatlari; 3) talabalarning his-tuyg‘ulari; va 4) talabalar natijalari. Ushbu elementlar bir biriga

ta’sir qilib, ikkinchi til o‘rganish borasidagi tegishli natijalarga olib keladi. Ushbu model bir qator empirik tadqiqotlar bilan isbotlandi [3-5], va o‘qitish hamda o‘rganishini baholash uchun foydali deb topildi.

Mavjud adabiyotlarda asosan maktab/universitet muhitidagi vaziyatlar ko‘rib chiqiladi, rasmiy ta’lim kontekstidan tashqarida esa ikkinchi til o‘rganish his-tuyg‘ulari haqida ma’lumot kam [6]. Bundan tashqari, mavjud empirik natijalar xalqaro miqyosda qanchalik ishonchli va universal ekanligi haqida savol tug‘ilishi mumkin, chunki asosan G‘arb ta’lim muhiti shu paytgacha tadqiqotchilarning e’tiborini tortib kelgan. Mavjud adabiyotlarning aksariyati ikkinchi til sifatida ingliz tilini o‘rganuvchilarning ehtiyojlarini yoki Italiya [7], Ruminiya [8, 9], Vengriya [10] va Kanada [11] kabi g‘arbiy sharoitlarda ikkinchi til o‘rganish xususiyatlarini yoritib kelgan. Shunday qilib, ikkinchi til o‘rganish his-tuyg‘ular bilan qanday bog‘liqligini yoritish uchun boshqa tillar misolida va boshqa kontekstlarda ko‘proq tadqiqotlar o‘tkazish tanlangan mavzuning dolzarbligini tashkil etadi.

Global miqyosda aniqlangan bo‘shliqlar O‘zbekistonda o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishga ham taaluqlidir, chunki ma’lumki, bunday tadqiqotlar hali olib borilmagan. Shunday qilib, nog‘arbiy kontekstda olib boriladigan tadqiqotlar hamda o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganayotgan O‘zbekiston fuqarolarining hissiy tajribalariga e’tibor qaratish yuqorida qayd etilgan bo‘shliqlarni samarali to‘ldirishga yordam beradi. Tanlangan mavzuning yangiligi, maqsadi va vazifasi ham aynan shulardan iborat. Ushbu maqolada o‘zbek millatiga mansub O‘zbekiston fuqarolarining o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishidagi hissiy tajribalarini yoritib beradigan keng qamrovli tadqiqotning bir qismi taqdim etiladi.

**Uslubiy qism.** Ma’lumotlar o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rgangan va/yoki o‘rganishda davom etayotgan 20-40 yoshdagi 25 ta O‘zbekiston fuqarosi hamda o ‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rgatayotgan o‘qituvchilar bilan individual suhbatlar orqali to‘plangan. Olingan ma’lumotlardan tadqiqot maqsadlarida foydalanish, ularning xavfsizligi, maxfiyligi va manbalarini taxalluslash BERA [12] axloqiy me’yorlariga muvofiq ta’minlandi. Olingan ma’lumotlar narrativ tahlil usuli yordamida qayta ishlangan [13] va o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rgangan talabalarning millati va hissiy tajribalaridan kelib chiqqan holda to‘rtta narrativ-hikoya shaklida muallifning doktorlik dissertatsiyasida keltirilgan. Ushbu maqolada "Uyaltirilganlar" deb nomlangan faqat bitta narrativ-hikoya taqdim etiladi.

**Natijalar taqdimoti va muhokamasi.** Bu hikoyada o‘zbek millatiga mansub, ammo o‘zbekcha erkin so‘zlashmaydigan Azamat, Bobomurod, Karima, Latofat, Lola, Parvina, Ruxshona, Salima, Sarvar, Sevda, Umayra va Valilarning o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganish tajribalari tahlil qilinadi. Ularning ba’zilari dastlabki yillarini O‘zbekistonning turli joylarida va undan tashqarida o‘tkazgan bo‘lsa-da, ularning barchasi 1990-2000-yillarda Toshkentning ruslashgan muhitida o‘sgan va o‘zbek tilini oz darajada o‘rgangan. Ularning rus tilida so‘zlashuvchi muhitda tarbiyalanganligi o‘zbek tiliga nisbatan dastlab bepisand munosabatda bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Shunga qaramay, hozir ularning ko‘plari ota-bobolarining tili bilan faxrlanishadi. Yuqorida aytib o‘tilgan 12 kishidan faqat Azamat va Valilarning o‘zbek tilidan uyda foydalanishga ehtiyojlari yo‘q yoki juda kam bo‘lib qolmoqda, chunki Azamat chet elda, Vali esa xalqaro kompaniyada ishlaydi.

Ushbu hikoya mazkur 12 kishi haqida salbiy taasurot qoldirish uchun shunday nomlanmagan. U "Uyaltirilganlar" deb nomlanadi, chunki uyat tuyg‘usi ularni o‘zbek tiliga nisbatan tavsiflagan yoki hanuzgacha tavsiflaydigan umumiy narsa sifatida aniqlangan. Ularning barchasi hech bo‘lmaganda bir marta o‘zbek bo‘la turib, ajdodlarining tilini yaxshi bilmasligi uchun uyaltirilganini tan olishgan. Shunday qilib, aybdorlikning odatiy xususiyati bo‘lgan xato qilishdan pushaymon bo‘lish o‘rniga, ular o‘zlarini xato deb bilib, o‘shandan pushaymon bo‘lishini, ya’ni uyatning odatiy xususiyatini namoyon qilishadi [14]. Shu tajribalar 1) oila; 2) maktab va universitet; va 4) norasmiy/xususiy o‘rganish kabi holatlarda xuddi shu tartibda ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari, o‘qituvchilarni intervyu qilish davomida olingan ma’lumotlar bu borada ko‘p kamchilik ko‘rsatgan va taklif bergan qahramonlarimizning natijalarini tekshirish uchun rasmiy o‘rganish tajribasi muhokamasiga qo‘shiladi.

Shunisi e’tiborga loyiqki, Bobomuroddan tashqari bu odamlarning barchasi “sof” o‘zbeklar emas. Bundan tashqari, ular o‘z oilalaridagi rus tilida ta’lim olgan ikkinchi va ba’zi hollarda uchinchi avlod vakillaridir. Ularning ota-onalari, ayniqsa, bobo-momolari o‘zbekcha so‘zlashadi, lekin ular farzandlari va nabiralariga o‘zbekcha yaxshi o‘rgatishmagan. Ko‘p hollarda o‘zbek tilini minimal kundalik darajada saqlab qolish yoki hatto Toshkent shevasiga xos ruscha so‘zlarni qo‘shib gapirish [15] bolalarda rag‘batlantirilar edi, chunki faqat ruscha gaplashadigan o‘zbeklar ko‘pincha milliy o‘zligini va ma’qul xatti-harakatlarni shakllantiruvchi an’anaviy qadriyatlarini yo‘qotadilar [16]. Sevdaning otasi uni rus maktabidan o‘zbek litseyiga o‘tkazmoqchi bo‘lganida, bu uni o‘zbek milliy an’analariga so‘zsiz amal qiladigan "yaxshi qiz"ga aylantiradi, deb o‘ylagan. Biroq rus tilida ta’lim olish istiqbollari nafaqat Sevdaning ota-onasi, balki hikoyamizdagi boshqa qahramonlarning ota-onalari uchun ham o‘zbekcha yaxshi bilish istagidan ustun chiqqanga o‘xshaydi. Lola va Ruxshona ham dastlab o‘zbek bog‘chasiga borib, so‘ngra o‘qishni rus tilida davom ettirganlari shundan dalolat beradi.

Keyinchalik, oilaviy omil, ya’ni o‘zbekzabon erkak bilan turmush ko‘rib, qaynota-qaynonasi bilan yashash ba’zi ayollarni (Lola, Sevda va Umayra) o‘zbek tilining o‘z hayotidagi ahamiyatini qayta ko‘rib chiqishga majbur qildi. Ularga qaynotasi va qaynonasi bilan muloqot qilish uchun o‘zbekcha bilish kerakligini hatto ba’zan to‘ydan oldin aytishgan. Darhaqiqat, ajdodlar tilini yaxshi bilish uzoq qarindoshlar bilan samarali muloqot qilishga va avlodlar o‘rtasidagi muammolarning oldini olishga yordam beradi. Biroq bu omil har doim ham tilni o‘rganish va unga yaxshi munosabatda bo‘lishga olib kelmaydi. Umayraning quyidagi hikoyasi erining qarindoshlarida tushunmaslik va sabrsizlik sababli o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida muvaffaqiyatsiz o‘rganishning achinarli misolidir. Bu esa uning hatto bir muddat o‘zbekcha umuman gapirmasligiga sabab bo‘ldi.

To‘yimdan oldin bo‘lajak erimning ota-onasiga mening ruslashgan o‘zbek qizi ekanligimni, o‘zbek milliy urf-odatlariga rioya qilmasligimni va ularning ko‘pini bilmasligimni aytishdi. Ular mening o‘zbekcha bilishim ham unchalik yaxshi emasligini bilishardi, lekin ular meni tushunushadi deb umid qilganman. Afsuski, bunday bo‘lmadi. Albatta, men ular aytgan hamma narsani qilishga harakat qilardim, lekin ular meni eshitishlarini ham xohlardim. Misol uchun, oilaviy kechki ovqat vaqti

kelganida (men o‘sha paytda sobiq qaynonam va qaynotam bilan yashagan edim), men har doim ularga kunim qanday o‘tganini aytib berishni xohlardim. Sobiq qaynotam hatto o‘zlari: "Xo‘sh, kuningiz qanday o‘tdi?"- deb so‘rardi. Oilamizning barcha a’zolari kunning ba’zi xotiralari bilan bo‘lishardi, ammo mening navbatim kelganida, men avtomatik ravishda ruscha gapira boshlardim. Shunda "O‘zbekcha gapiring" deganini bir marta eshitish kifoya qildi. O‘shandan beri, ehtimol... men buni travma deb atamayman, lekin qandaydir psixologik to‘siq paydo bo‘ldi. Men o‘zbekcha ruschadek gapira olmasligim sababli jim bo‘lib qoldim, natijada o‘zbekcha gapirmay qo‘ydim. Ular mening o‘zbekcha gapirmasligimni bilishgan, lekin o‘zlariga qo‘lay bo‘lsin deb meni sindirmoqchi bo‘lishgan. Bu esa mening sog‘lom madaniyat va muloqot odobini tushunishimga ziddir. Mening sobiq qaynotam va qaynonam ruscha mukammal gaplashadi, lekin ehtimol ular meni uyaltirishni istagandir, bilmayman. Men bu oilada uch yil yashadim, aniqrog‘i azob chekdim. Ajrashganimdan keyin, ehtimol bu oilaga xafa bo‘lgandirman. Bu o‘zbekcha gapirmaslikda o‘z ifodasini topdi. Avvaliga o‘zbekcha umuman gapirmaslikka qaror qildim. Hozir hammasi yaxshi, kerak bo‘lganda o‘zbekcha gapiraman.

Shuni ta’kidlash joizki, barcha 12 tasining kengroq muloqot doirasi o‘zbek tili bilimini yaxshilashga katta hissa qo‘shgan. Biroq bu ularning hayotida keyinroq, ya’ni O‘zbekistonda o‘zbek tili kuchayganida yuz berdi. Azamatning ruscha yaxshi bilmaydigan yigitlar bilan harbiy xizmat o‘tash tajribasi, Valining O‘zbekiston bo‘ylab mehnat safarlarida bo‘lishni o‘z ichiga olgan oldingi ishi yoki Sarvarning litseydagi o‘zbekzabon tengdoshlari bilan, Latofatning universitetdagi kursdoshlari va o‘qituvchilari bilan, Bobomurodning hamkasblari va bemorlari bilan tez-tez muloqot qilishlari bo‘ladimi, barchasi ularni til o‘rganishga undagan, chunki bu real muloqot uchun imkoniyatlar yaratgan. Ammo ularning o‘zbekcha so‘zlashuvchilar bilan aralashishi har doim ham ijobiy his-tuyg‘ularni keltirib chiqarmadi yoki tilni o‘rganish istagini kuchaytirmadi. Buning asosiy sababi ularning o‘zbekcha ravon so‘zlashmasligini tanqid qilishdir.

Meni doimo ochiqchasiga o‘zbekcha yaxshi bilmasligim uchun uyaltirishardi. [Ruxshona)]

Oldin (2007-2015-yillarda) o‘zbekzabon odamlar ham o‘z nutqida rus so‘zlaridan foydalanishgan, chunki bu ommalashgan edi (hozirgi ingliz so‘zlari bilan bo‘lgani kabi). Endi men jamoatchilik tomonidan, ayniqsa o‘zbek millatiga mansublarning xato qilgani va til bilmasligi uchun qattiq tanqid qilinishiga duch kelyapman. [Salima]

Ba’zan odamlar mening Sarvar ekanligimni, o‘zbekcha qiyofam borligini, lekin ruscha gaplashayotganligimni ko‘rishadi. Bu ba’zi o‘zbekzabon bolalarni g‘azablantiradi. Ularga bu yoqmaydi. [Sarvar]

Ushbu holatlarning barchasi o‘rganuvchini [tilni] osonlik bilan o‘rganish imkoniyatidan mahrum qiladigan [22] tilni kamsitishning misollaridandir.

Aksincha, ushbu12 kishining o‘zbek tili maktabda yoki universitetda o‘qitilishi tilni egallashga eng kam hissa qo‘shgan. Hammasi maktab va universitetda o‘zbek tilini o‘rganishdan ijobiy emas, balki salbiy tajribaga ega ekanliklarini aytishdi. O‘zbek tili o‘qituvchilarining motivatsiyasizligi/motivatsiyasizlantirishi, ularning zerikarli o‘qitish usullari, nojo‘ya xulqi (kechikish, ishga kelmaslik- Ruxshona),

bema’ni topshiriqlar/uy vazifalari (masalan, "uzun she’rlarni ma’nosini tushunmasdan yodlash" – Parvina) va amaldagi o‘quv dasturlarida nutqni rivojlantirishga emas balki grammatik mashqlar bajarilishiga urg‘u berilishi [Umayra] shular jumlasidandir. Ushbu omillar boshqa tillarni o‘rganish tajribalarida aniqlangan omillarga juda o‘xshash.

O‘zbek tilini o‘rganish va o‘rgatishni yaxshilash bo‘yicha quyidagi takliflar kiritildi:

O‘zbek tili darslarini o‘yin tarzida o‘tkazsa yaxshi bo‘lar edi, deb o‘ylayman. Darslar o‘zbek madaniyati haqida tasavvur bergan holda olib borilishi kerak. Bunda o‘quvchilar teatrlarga tashrif buyurib, o‘zbek xalqining an’analarini chuqur o‘rganishlari mumkin. Yana bir xato, menimcha, adabiy o‘zbek tilini o‘qitish edi. Gapirishni o‘rgatish kerak. [Sevda]

Ular (o‘zbek tili o‘qituvchilari) filmlar, tarixiy faktlar va ba’zi qiziqarli ma’lumotlar asosida interfaol darslar o‘tishlari mumkin edi. Til tarixi va o‘z asarlarini ushbu tilda yozgan buyuk shaxslar haqida ko‘proq ma’lumot olish qiziqarli bo‘lar edi. [Lola]

Ular (o‘zbek tili o‘qituvchilari) o‘zbek tiliga tarjima qilingan zamonaviy filmlarni namoyish qilishlari va qiziqarli kitoblarni o‘qitishlari mumkin edi. [Vali]

Ular (o‘zbek tili o‘qituvchilari) hech bo‘lmaganda o‘z fanlariga bo‘lgan muhabbatlarini namoyon qilishlari mumkin edi. Mening o‘qituvchilarim xuddi o‘qitishga majbur bo‘lgandek ishlashgan. Ular yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ko‘proq e’tibor berishlari mumkin edi. She’rlarni yodlashimizni so‘rash o‘rniga, ular biz tushunmagan so‘zlarning ma’nosini tushuntirishlari mumkin edi. [Salima]

Barcha 12 tasi o‘qituvchilar o‘zbek tili darslarida qiziqarli video va audio materiallardan foydalanishlari zarurligini ta’kidladilar. So‘rovda qatnashgan o‘qituvchilarning fikriga ko‘ra, birinchi navbatda, «o‘zbek tilida yuqori sifatli audio va video kontentni topish mumkin emas/qiyin» [Narimon] yoki yaratish uchun uzoq vaqt talab etiladi» [Lutfiya]. Ikkinchidan, ba’zi o‘qituvchilar bu materiallar "foydadan ko‘ra ko‘proq chalg‘itadi" [Gulshan] deb hisoblashadi. Uchinchidan, ko‘plab maktablar hali ham ushbu texnologik yangiliklardan mahrum. Hatto ularga ega bo‘lgan maktablar ham ularni to‘liq imkoniyatlaridan foydalana olmaydilar, chunki "o‘qituvchilarga bu texnologiyalar o‘qitilmagan" [Marjon]. Bundan tashqari, 20 yil oldin maktablarda zamonaviy texnologik vositalar juda kam edi.

Rasmiy ta’lim muassasalarida ko‘p hollarda o‘zbek millatiga mansublarni butun sinf oldida o‘zbekcha so‘zlashmaganliklari uchun sharmanda qilishgan, go‘yo bu ularni til o‘rganishga undashi mumkin edi. Odamlar o‘zbek millatiga mansubligi tufayli o‘ziga xos bosim sezgan, shuning uchun ularning o‘zbekcha bilmasligidan uyat hislari boshqa millat vakillari bo‘lganlarnikidan farq qiladi. Biroq oqibati bir xil edi: bu o‘zbek tiliga uzoq vaqt e’tiborsiz bo‘lish va/yoki o‘zbek tilini o‘rganish mumkinligiga ishonchni yo‘qotishdir. Faqat Lola va Karima sharmandaliklarini yengib o‘tishdi va endi o‘zlarini aybdor his qilishlarini aytishdi, ammo bu ularning maktabda o‘zbek tilini o‘rganish paytida sodir bo‘lgani yo‘q. Hozir ularning o‘zbek tiliga bo‘lgan munosabati butunlay o‘zgargan. Ushbu natijalar Teimourining [14] tadqiqoti natijalariga o‘xshash, ya’ni uyatga moyillik (aybdorlikka moyillik emas) til o‘rganishni sekinlashtiruvchi omil sifatida aniqlandi.

Yuqorida aytib o‘tilgan qiyinchiliklarga qaramay, o‘n ikkita qahramonimizning o‘zbek tilini rasmiy o‘rganish tajribalarida ijobiy tomonlar ham bor edi. Ular ko‘pincha yaxshi o‘qitish bilan bog‘liq bo‘lib, qahramonlarimizga asosan o‘qish, yozish, tushunish va grammatika ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon berdi. Afsuski, bu tajribalar o‘zbek tili ko‘nikmalarini barqaror rivojlantirish uchun yetarli emas yoki qisqa edi. Boshqacha qilib aytganda, ikkinchi tilni kengroq ishlatish uchun "Rubikon daryosini kesib o‘tish", ya’ni orqaga yo‘l yo‘q degan qarorga kelish sodir bo‘lmadi. Ushbu ko‘nikmalar maktabda shakllanganligi sababli, maktab tajribasi keyingi bosqichlardagisiga nisbatan ko‘proq qadrlanadi.

Qizig‘i shundaki, 12 kishidan faqat Sevda, Latofat va Salima norasmiy va/yoki xususiy tarzda o‘zbek tilini o‘rganishni davom ettirdilar, ammo Umayra o‘zbek tili ko‘nikmalarini yaxshilash zarurati va istagini ham bildirgan. Latofat va Salima o‘zlarining kasbiy faoliyati bilan bog‘liq o‘zbek tilidan va o‘zbek tiliga tarjima qilishga muhtoj bo‘lib, turli lug‘atlar va onlayn tarjima xizmatlaridan foydalanadilar. Sevda esa o‘zbekzabon odamga turmushga chiqishdan oldin o‘zbek tilini o‘rganishga yordam bergan xususiy o‘zbek tili kurslariga qatnagan. O‘qituvchi, materiallar va yondashuv uning ehtiyojlariga to‘la mos keldi.

Agar maktabda menga shu tarzda bilim berganda edi, men o‘zbek tilini yaxshi bilib, o‘z fikrimni o‘zbek tilida yaxshi ifoda eta olgan bo‘lar edim. Shundan keyin men ravonroq gapira boshladim. Endi men yanada dadilroq va tortinmasdan gapiraman.

Ushbu harakatlar muntazam bo‘lib ko‘rinadi, chunki ular bevosita yoki bilvosita o‘rganuvchilarning o‘zlarini yaxshi his qilishlariga olib keladi, bu esa tilni o‘rganishda muhim hisoblanadi [2].

Shuni ta’kidlash joizki, 12 kishining aksariyati o‘zbek tili o‘qituvchilarining maoshi pastligi ularni davlat maktablari/universitetlarida o‘z ishlarini yaxshi bajarishlari uchun motivatsiyasini pasaytirishi mumkinligini taxmin qilishdi. Masalan,

Ehtimol, o‘qituvchilarning o‘zlari ham yuqori maosh bilan rag‘batlantirilishi kerak. Ehtimol, dastlab ular yonib, biron bir narsani o‘rgatishga rosa harakat qilishgandir, lekin ular o‘zlarining faniga bunday munosabatni ko‘rgach, hafsalasi pir bo‘ldi va urinishlari to‘xtatildi. [Azamat]

Bu juda muhim masala, chunki xususiy muassasalarda o‘qituvchilar yuqori maosh olishadi [31]. Afsuski, suhbatdoshlarimdan biri (O‘g‘iloy) davlat maktablarida o‘zbek tili o‘qituvchilari hatto o‘zbek tilini o‘qitish uchun ilgari to‘langan 15% lik ustama haqidan mahrum bo‘lishganini aytdi. Endi ushbu bonus O‘zbekistondagi ingliz tili o‘qituvchilariga to‘lanadi. Darhaqiqat, 2012-yildan beri O‘zbekistonda ingliz tili o‘qituvchilari ushbu ustama haqini olishmoqda va endi agar ular ingliz tilini bilish to‘g‘risidagi xalqaro sertifikatga ega bo‘lsalar, 100% lik ustama haqini olish huquqiga ega [32]. Ulardan farqli o‘laroq, o‘zbek tili o‘qituvchilarida bunday bonus yo‘q. Ushbu kamchiliklarni hisobga olgan holda, bunday motivatsiyasizlantiruvchi ish sharoitida juda kam sonli o‘qituvchilar o‘z ishlarini yaxshi bajarishda davom etadilar, degan xulosaga kelish oson.

**Xulosa.** Azamat, Bobomurod, Karima, Latofat, Lola, Parvina, Ruxshona, Salima, Sarvar, Sevda, Umayra va Valilarning hikoyalaridan xulosa chiqarsak,

ularning hech biri uzoq muddatda rasmiy o‘qitish tizimida o‘zbek tilini o‘rgana olmadi, uning ta’siri ijobiy emas, ko‘proq motivatsiyasizlantirayotgan edi. Ular bu borada mavjud to‘siqlarni ko‘rsatib, ularni yengib o‘tish uchun ba’zi fikrlar va tavsiyalar berishdi. Ularning oilasi va ayniqsa kengroq muloqot doirasi ko‘p hollarda o‘zbek tili ko‘nikmalarini rivojlantirish nuqtayi nazaridan foydali bo‘ldi. Natijada, ularning barchasi o‘zbekcha gapirishdan ko‘ra yaxshiroq tushunishadi. Biroq ularning hammasi ham bu vaziyatdan mamnun emaslar va uni norasmiy / xususiy ta’lim olish imkoniyatlari orqali yaxshilashga harakat qilishadi. Lekin o‘zbek tilini bilmasliklari uchun uyaltirish ularning til o‘rganishiga va shu tilga bo‘lgan munosabatiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Bu 12 ta qahramonimizda o‘zlarining o‘zbek millatiga mansubligi tufayli uyat tuyg‘usi ancha kuchliroq bo‘ladi. Teimouri [14] o‘z tadqiqotida ko‘rsatgani kabi, sharmandalik hissi odamning shaxsiyatiga tahdid qiladi, va uni himoya qilish uchun odam sharmandalikni keltirib chiqaruvchi omildan qochmoqchi bo‘ladi. Shunday qilib, sharmandalikni keltirib chiqaruvchi o‘zbek tilini o‘rganishdan voz kechiladi. Aybdorlik hissi esa teskari ta’sir qilishi ma’lum [14], bu Lola va Karima tajribalaridan aniq bo‘ldi. Shunday qilib, o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganish natijasida 12 ta odamning kechinmalari muhitga (rasmiy va norasmiy o‘rganish tizimlari), shaxsiy xususiyatlarga (millat) va natijaga (o‘z-o‘zini yaxshi his qilish) bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Ushbu kechinmalar Shao va boshq. [2] ko‘rsatgani kabi, ularning qat’iyatliligiga (shaxsiy xususiyat) va motivatsiyasiga (natija) ham ta’sir qiladi. Albatta mazkur xulosalarning ishonchliligini oshirish maqsadida bu borada kengroq ko‘lamdagi tadqiqotlarni o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Dewaele, J. M., 2010. Emotions in multiple languages. Basingstoke: Palgrave Macmillan.
2. Shao, K., Nicholson, L.J., Kutuk, G. and Lei, F., 2020. Emotions and instructed language learning: Proposing a second language emotions and positive psychology model. Frontiers in Psychology, *11*, p.2142.
3. Arens, A.K., Morin, A.J. and Watermann, R., 2015. Relations between classroom disciplinary problems and student motivation: Achievement as a potential mediator? Learning and instruction, *39*, pp.184-193.
4. Frenzel, A.C., Becker-Kurz, B., Pekrun, R., Goetz, T. and Lüdtke, O., 2018. Emotion transmission in the classroom revisited: a reciprocal effects model of teacher and student enjoyment. Journal of Educational Psychology, 110(5), p.628.
5. Wei, H., Gao, K. and Wang, W., 2019. Understanding the relationship between grit and foreign language performance among middle school students: The roles of foreign language enjoyment and classroom environment. Frontiers in psychology, 10, p.1508.
6. Driver, M. and Prada, J., 2024. Global perspectives on heritage language education and emotion: Introduction to the special issue. Modern Language Journal, 108(S1), pp.3-13.
7. MacIntyre, P.D. and Vincze, L., 2017. Positive and negative emotions underlie motivation for L2 learning. Studies in Second Language Learning and Teaching, 7(1), pp.61-88.

8. Pavelescu, L.M. and Petrić, B., 2018. Love and enjoyment in context: Four case studies of adolescent EFL learners. Studies in Second Language Learning and Teaching, 8(1), pp.73-101.

9. Dewaele, J.M. and Pavelescu, L.M., 2021. The relationship between incommensurable emotions and willingness to communicate in English as a foreign language: a multiple case study. Innovation in Language Learning and Teaching, 15(1), pp.66-80.

10. Piniel, K. and Albert, A., 2018. Advanced learners' foreign language-related emotions across the four skills. Studies in Second Language Learning and Teaching, 8(1), pp.127-147.

11. Boudreau, C., MacIntyre, P. and Dewaele, J.M., 2018. Enjoyment and anxiety in second language communication: An idiodynamic approach. Studies in Second Language Learning and Teaching, 8(1), pp.149-170.

12. 2018. BERA Ethical Guidelines for Educational Research. 4th ed. [ebook] London: BERA, Available at: <https://www.bera.ac.uk/publication/ethical-guidelines-for-educational-research-2018-online> [Accessed 21 February 2021].

13. Smith, B., 2016. Narrative analysis. Analysing qualitative data in psychology, 2, pp.202-221.

14. Teimouri, Y., 2019. Exploring the Links between Second Language Learners' Proneness to Shame and Proneness to Guilt and their Language Learning Motivation and Achievement. Georgetown University.

15. Toshkent shevasi (2009). Toshkent ensiklopediyasi. (in Uzbek). Available at: https://shosh.uz/uz/toshkent-shevasi/ (Accessed: 27 January 2024).

16. Jalilov, A.T. 2022. Religious Matters of Youth Education for Marriage in Uzbekistan. Bulletin of the Graduate School of Education and Human Development（Educational Sciences）Nagoya University, 69(2), pp.81-91.